



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 25-noyabr, № 246 (9141)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



GLOBAL EKOLOGIK MASALALAR SAMARQANDDA MUHOKAMA QILINMOQDA

Samarqandda Yo'qolib borayotgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdoni tartibga solish to'g'risidagi konvensiya (CITES) Tomonlar konferensiyasining 20-sessiyasi (CITES CoP20) o'z ishini boshladi.



CITES-CoP20
SAMARKAND 2025
UZBEKISTAN

Forum va uning doirasidagi tadbirlarda dunyoning 185 davlatidan 3 ming nafarga yaqin ishtirokchilar, jumladan, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy hamjamiyat va nodavlat sektori vakillari qatnashmoqda. Asosiy e'tibor bioxilmaxillikni saqlash bo'yicha global

chora-tadbirlarni kuchaytirishga, yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro savdoni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilayapti.

Anjumaning ochilish marosimida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

kotibi o'rinbosari — BMT atrof-muhit dasturi ijrochi direktori Inger Andersen xonim sessiya qatnashchilariga videomurojaat yo'llab, O'zbekiston rahbariyatiga mazkur xalqaro tadbirga mezbonlik uchun minnatdorlik bildirdi va sessiya ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Qayd etilganidek, konvensiya kuchga kirganining 50 yilligi bilan birgalikda o'tayotgan bo'lib, unda tabiat va inson uyg'unlikda rivojlanadigan kelajakni shakllantirishga urg'u beriladi.

CITESning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash orqali turlar yo'qolib ketishining oldini olish hisoblanadi. Konvensiya yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar bilan savdoni cheklash yoki to'liq taqiqlash, tabiiy populyatsiyalarga

zarar yetkazmaydigan darajada savdoni nazorat qilish, a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini o'rnatishni nazarda tutadi.

O'zbekiston 1997-yildan beri CITES konvensiyasi ishtirokchisi va mazkur konvensiya ilovalariga kiritilgan qator turlar, jumladan, qor qoploni, sayg'oq va kamyob dorivor o'simliklarning vatani hisoblanadi.

Mazkur konferensiyaning O'zbekistonda o'tkazilishi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'lib, mamlakatimizning yovvoyi tabiatni asrash va barqaror tabiiy resurslardan foydalanish borasidagi qat'iy pozitsiyasini tasdiqlaydi.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

QONUN LOYIHALARI YUZASIDAN POZITSIYALAR BELGILAB OLINDI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida 19-noyabr kuni o'tkazilgan kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilangan chora-tadbirlarning ahamiyati haqida so'z bordi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda kambag'allikka qarshi kurash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishni mustahkamlab qo'yildi.

Deputatlar videoselektorda qayd etilgan vazifalar O'zLiDePning g'oya va



maqsadlariga hamohang ekanini aytib, partiya saylovoldi dasturida barqaror ish joylarini yaratib, kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida o'rin olganini ta'kidladi.

Shundan so'ng Adliya vazirining "Davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy holatlar kelib chiqishining oldini olish hamda aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan

ishlar to'g'risida"gi axboroti ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan isloh qilish, sohada byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat idoralari faoliyatini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.



O'rganish

O'rganish davomida "Zarafshon" milliy tabiat bog'ida noyob flora va fauna vakillarini muhofaza qilish borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi.

Ta'kidlanganidek, parlament so'rovida aks etgan masalalar bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Dorivor o'simliklarning tabiiy zaxiralari aniqlash, ularning kadastrini yuritishning elektron tizimini joriy etish hamda kvota ajratishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga e'tibor qaratilgan.

"Zarafshon" milliy tabiat bog'ining umumiy yer maydoni 2,4 ming gektarni tashkil etib, mazkur bog'da qimmatbaho dorivor o'simliklar landshaftlari kengaytirilmoqda.

Shuningdek, bog' hududida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar parvarishlanmoqda.

Bundan tashqari, tabiat bog'ida 80 dan ziyod dorivor va 23 tur texnik o'simliklar, 73 tur zamburug'lar hamda 33 tur suv o'tlari mavjud.

O'rganish davomida dorivor o'simliklarga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, ilmiy ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlarni kuchaytirish yuzasidan mutaxassislar bilan fikr almashildi.

Shuningdek, dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash, ularga kvota ajratish hamda sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha mas'ullarga tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

Aks sado

FAROVONLIK SARI DADIL ODIMLAR

Kambag'allik deb atalgan jarayonning butun dunyo mamlakatlarga ko'rsatadigan ta'siri deyarli bir xil. U mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan holda mehnat bozorida turg'un raqobatsizlik holatini keltirib chiqaradi, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'zaro muvozanatini buzadi. Omonatlar hajmi qisqarib, aholi xarid qobiliyatining pasayishi evaziga "bozor o'ladi".

Shu bois har bir davlat o'z hududida kambag'allikni yo'qotish uchun iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, tadbirkorlik uchun shart-sharoit yaratish kabi turli usullarni amaliyotga joriy qiladi.

O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish, yaqin kelajakda aholining ish bilan unumli bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish masalasi

hozirda davlat va jamiyat oldida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bu bot-bot tilga olindi.



O'ZBEKISTONNING NOTARIAT TIZIMI

Yangi bosqichdagi rivojlanish tendensiyalari

Keyingi yillarda O'zbekistonda huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, fuqarolarga qulay va shaffof xizmatlar ko'rsatish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Notariat tizimi ham bu jarayonning muhim bo'g'ini sifatida tubdan yangilanmoqda.

O'zbekiston mustaqillikdan keyin notariat organlarini shakllantirish va huquqiy baza yaratishga alohida e'tibor qaratdi. 1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni tizimning asosiy me'yoriy poydevorini yaratdi. Biroq jamiyat rivoji, iqtisodiy islohotlar va raqamli infratuzilmaning kengayishi notariat tizimini ham zamon talablariga moslashtirishni talab etar edi.

Aynan shu maqsadda so'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan tizimli islohotlar notariat organlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlar va sohaga e'tibor, Adliya vazirligi va Notarial palata tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasida tizimning xizmat ko'rsatish sifati tubdan yaxshilandi, aholi hamda biznesning unga ishonchi sezilarli darajada mustahkamlandi.

Tahlil

Raqamlashtirish — asosiy tamoyil

Bugungi kunda notarial harakatlarning katta qismi elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

"Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi yagona elektron platformasining ishga tushirilishi bilan notarial harakatlarni onlayn tartibda amalga oshirish, elektron hujjat almashinuv tizimi, elektron navbat va onlayn bron xizmati,

ma'lumotlarni yagona reestrda saqlash va tekshirish imkoniyati yaratildi. Bu, birinchidan, fuqarolar uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirsa, ikkinchidan, soxta hujjatlar va korrupsiya ehtimolini keskin qisqartirdi.

Amalga oshirilgan shiddatli transformatsiya samarasi o'laroq mijozlarga yo'naltirilgan, shaffof tartiblar bilan ta'minlangan struktura shakllandi. Natijada ayni paytga kelib onlayn notarial xizmatlar turi 12 taga yetdi. 2026-yilda ular sonini 24 taga yetkazish

ko'zda tutilgan. Bu esa aholini notariusga shaxsan murojaat etish zaruratidan ozod qiladi. Masalan, fuqarolar masofadan turib ishonchnoma berish yoki voyaga yetmagan bolani xorijga olib chiqishga rozilik bildirish, imzoni tasdiqlash yoki videokonferensiya orqali notarial maslahat olish imkoniyatiga ega. Bu xizmatlar "e-notarius.uz" portalida amalga oshiriladi va "OneID" elektron identifikatsiya platformasi bilan integratsiyalangan.

Raqamli innovatsiyalar

"Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosida tashkil etilgan. Bu yagona elektron notarial axborot tizimi bo'lib, huquqiy maqomga ega va mamlakatdagi barcha notarial harakatlar unda ro'yxatga olinadi. Notariuslar fuqarolar haqida zarur ma'lumotlarni tashkilotlarning integratsiya qilingan tizimlari orqali olishlari mumkin. Bu esa aholidan olinadigan hujjatlar hajmini taxminan 87 foizga kamaytiradi. Bu jarayonda Masofaviy notarial harakatlar bilan bog'liq muhim yangiliklar joriy etildi.

Jumladan, Yagona elektron reestr — barcha bitim va ishonchnomalar ma'lumotlari "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida saqlanadi, bu takroriy hujjat olishga ehtiyoj qoldirmaydi va shaffoflikni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan hujjat aylanishida notariuslar fuqarolar haqida (masalan, ko'chmas mulk yoki oilaviy holat) ma'lumotlarni elektron tizim orqali

oladi, qog'oz nusxalar talab qilinmaydi. Elektron litsenziyalash — notarius maqomi va malaka imtihonlari "Litsenziya" axborot tizimi orqali onlayn translyatsiya bilan o'tkaziladi, bu jarayonning ochiq va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bu choralar tizimni kam xarajali va soddalashtirib, aholining notariusga murojaatini qulaylashtiradi.

Shuningdek, aholi uchun notariuslarni qidirish, navbatga ro'yxatdan o'tish, ishonchnomalarning haqiqiyligini tekshirish, meros ishlari holati, notarial harakatlar uchun zarur hujjatlar ro'yxati va xizmat haqini hisoblash imkoniyatini yaratish maqsadida "e-notarius.uz" sayti tashkil qilindi. Notarial palataning sayti — "notarialpalata.uz" va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari jamoatchilikka notariat sohasidagi islohotlar, Palata faoliyati va zarur qonunchilik hujjatlari bilan tanishish imkonini bermoqda.



8-dekabr — O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

Yangi O'zbekiston: ORTGA QAYTMAS DEMOKRATIK ISLOHOTLAR YO'LIDA



"Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohaslarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi".

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

2025-yil — yubileylar yili

"Yildan yilning farqi bor", deydilar. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil yodda qoladigan muhim voqealar va yubiley sanalariga boy bo'ldi. Ayniqsa, joriy yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80 yilligi hamda YEXHK Xelsinki hujjatining 50 yilligi keng nishonlanayotgani alohida e'tiborga molikdir. BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida xalqaro hamjamiyat mazkur xalqaro tashkilot faoliyatini isloh qilish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Bu islohotlar samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash, vazifalarni bajarish tartibini qayta ko'rib chiqish hamda ehtimoliy tarkibiy o'zgarishlar va dasturlarni qayta tuzish masalalarini o'z ichiga oladi.

Ayni chog'da 2025-yilda jahon hamjamiyati inson huquqlari bo'yicha birinchi majburiy yuridik shartnoma — Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganining 60 yilligini, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy va siyosiy hayotning gender mezoniga asos solgan Xotin-qizlar to'g'risidagi Pekin deklaratsiyasi va Harakat dasturining 30 yilligini nishonlamqda.

Inson huquqlari — hozirgi zamon sivilizatsiyasi taraqqiyotining o'ziga xos ko'rsatkichi. Afsuski, dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-

iqtisodiy inqirozlar, iqlim o'zgarishlari, narx-navo kelishmovchiliklari, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish borasidagi tengsizliklar, o'zaro ishonchning yo'qolishi kabi muammolar inson huquqlari masalalariga va 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi davrda Yangi O'zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar yo'lidan dadil bormoqda, pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda, jahon hamjamiyati bilan ochiq va faol muloqot olib bormoqda. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

XXI asrning konstitutsiyaviy manzarasi

Biz tez o'zgaruvchan sharoitlarda shakllanadigan va sezilarli xilmaxillikka ega bo'lgan konstitutsiyalar dunyosida yashayapmiz. Bugungi kunda konstitutsiyalar milliy o'zlikni shakllantirishga, ijtimoiy kelishmovchiliklarni yumshatishga, inson hayotini mashinalar va sun'iy intellekt bilan o'zaro munosabatlarga moslashtirishga, shuningdek, tabiiy va texnogen inqirozlarni bartaraf etishga ko'maklashmoqda.



FAROVONLIK SARI DADIL ODIMLAR

➡ Taʼkidlanganidek, bugungi kunda kambagʻallik darajasi umumdavlat miqyosidagi ishlab chiqarish imkoniyatlarida va aholining turmush tarzida ifodalanib, ijtimoiy masala sifatida deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon boʻlmoqda.

Olib borilgan saʼy-harakatlar natijasi oʻlaroq ishsizlik darajasi 2024-yildagi 5,5 foizdan joriy yil boshida 4,9 foizga pasaydi.

Yigʻilishda aholini daromadli qilish, ish oʻrinlarini koʻpaytirishning aniq chora-tadbirlari belgilab berildi. Kelgusi yilda kambagʻallik va ishsizlik darajasini 4,5 foizdan kamaytirish mutasaddilarning asosiy vazifasi boʻlishi qayd etildi.

Mamlakatimizda aholi turmush tarzi va yashash sifatini yaxshilash uchun ular daromadlarining oʻsishini taʼminlaydigan munosib, unumli va mahsuldor bandlikni ragʻbatlantirish siyosati olib borilayotgani alohida ahamiyatga ega.

Videoselektor yigʻilishida qurilish, xizmat koʻrsatish, sanoat, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarni yanada rivojlantirish orqali aholi bandligini taʼminlash, daromadlarini

oʻshirish kabi asosiy yoʻnalishlar belgilab berildi. Shuningdek, ehtiyojmand oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalasiga ham bu yoʻnalishdagi asosiy vazifa sifatida eʼtibor qaratildi.

M a h a l l a l a r d a y a n g i tashabbuslarga safarbarlik ruhi orqali aholining daromadini oʻshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish va kambagʻallikka barham berish borasida tajribalar oʻz natijasini koʻrsatishiga xalqimiz katta ishonch bildirmoqda. Binobarin, bu yoʻnalishdagi izchil chora-tadbirlar inson qadrini ulugʻlash, farovon hayotga erishishda Oʻzbekistonning oʻziga xos yoʻlidir.

2030-yilga borib kambagʻallikka toʻliq barham berishdek katta marrani zabt etishimizda mamlakatimizda mustahkam asos yaratilgan. Zero, bu borada Prezidentimiz tomonidan hayotga tatbiq qilinayotgan Yangi Oʻzbekiston modeli dasturlamal boʻlmoqda.

Jamila BOBANAZAROVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

GLOBAL EKOLOGIK MASALALAR SAMARQANDDA MUHOKAMA QILINMOQDA

➡ Marosimda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi – Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi raisi Aziz Abduhakimov, CITES Bosh kotibi Ivonn Igero xonim soʻzga chiqib, mazkur xalqaro forum va undan kutilayotgan natijalarga eʼtibor qaratdi.



A. Abduhakimov oʻz soʻzida Oʻzbekiston hukumati Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yoʻlidagi mintaqaviy va global saʼy-harakatlarni faol qoʻllab-quvvatlashga qatʼiy bel bogʻlaganini qayd etib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga toʻxtaldi.

– 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb eʼlon qilinishi Yangi Oʻzbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni taʼminlash, iqtisodiy oʻsishning resurslar tejamlorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga oʻtish irodasining yorqin ifodasidir, – dedi A. Abduhakimov. – Yaqinda

ekologiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida 14 ta yangi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tashkil etilib, ularning maydoni 4 foizdan 14,2 foizga yoki 6,3 million gektarga yetdi. 108 turdagi yovvoyi hayvon va oʻsimlik turlari CITES roʻyxatlariga kiritildi va muhofazaga olindi. Qizil kitobga

kiritilgan hayvonot obyektlariga yetkazilgan zararni undirish hajmi 10 baravar, oʻsimliklarga yetkazilgan zararni undirish hajmi 5 baravar, daraxtlarni noqonuniy kesganlik uchun jarimalar 5 baravar oshirildi. Kundalik faoliyatga raqamli yechimlar, jumladan, “GIS” (geografik axborot tizimlari) va “SMART-Patrol” tizimi joriy qilinmoqda. Natijada 2023-yildan boshlab inspektorlar tomonidan yovvoyi tabiatga qarshi 14 mingdan ortiq jinoyat va noqonuniy savdo holatlari qayd etilib, oldi olindi.

Anjumanda Oʻzbekiston tomonidan raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekti rivojlantirish uchun “Samarkand Al-hub”



Prezidentimiz milliy ekologik boshqaruvi tubdan oʻzgartirish va samaradorligini oshirish toʻgʻrisidagi tarixiy Farmoni imzoladi. Unga koʻra, toʻgʻridan-toʻgʻri Prezident va Oliy Majlis Senati oldida hisobdor Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi tashkil etildi. Qoʻmitaga “Biomeros”, “Yashil makon”, “Ekologik madaniyat”, “Toza havo” va “Chiqindisiz hududlar” kabi umummilliy loyihalarni amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Ekopoliitsiya va Ekologik monitoring milliy markazi transformatsiya etilib, uning yangi vakolatlarini yovvoyi flora va faunaning noqonuniy savdosi hamda tabiatga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshiradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda

maslahat platformasini yaratish, noqonuniy yovvoyi tabiat aylanmasiga qarshi sanksiyalarni muvofiqlashtirish va javobgarlik choralari kabi kuchaytirish mexanizmini ishlab chiqish kabi qator tashabbuslar ilgari surildi.

Ochilish marosimidan soʻng sessiya kun tartibidagi muhim masalalar muhokamasiga kirishildi.

“CITES Cop20” 5-dekabrga qadar davom etadi. Uning doirasida yovvoyi tabiatni himoya qilish boʻyicha xalqaro saʼy-harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan koʻplab yalpi yigʻilishlar, konvensiya ilovalariga oʻzgartirishlar muhokamasi, tematik tadbirlar va yuqori darajadagi uchrashuvlar boʻlib oʻtadi.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV
(“Xalq soʻzi”).

QONUN LOYIHALARI YUZASIDAN POZITSIYALAR BELGILAB OLINDI

➡ Fraksiya aʼzolari aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 150 turdagi maʼlumot va hujjatlarni talab etish bekor qilinishi natijasida ularning 22,7 mlrd. soʻmdan ortiq mablagʻlari tejaliishiga erishilganini ijobiy baholadi. 200 dan ortiq davlat xizmatlari boʻyicha ariza berish jarayonlari “Uch qadam” tamoyili asosida soddalashtirilgani ham eʼtirof etildi.

Muhokamalar davomida ushbu sohada yutuqlar bilan birga, mavjud



kamchiliklarni bartaraf qilish, xizmatlar sifati va aholi qoniqlik darajasini oshirish, davlat xizmatlarini koʻrsatishda korruptsiyaviy holatlar kelib chiqishining oldini olish boʻyicha qator takliflar berildi.

“Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yigʻilishi Prezidentimiz raisligida kambagʻallikni qisqartirish hamda aholi bandligini taʼminlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishi muhokamasi bilan boshlandi.

Taʼkidlanganidek, yigʻilishda bugun eng muhim masalaga aylangan kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha qator yangi taklif va tashabbuslar ilgari surildi hamda ularning ijrosi boʻyicha davlat idoralari masʼuliyati yana bir bor alohida koʻrsatib oʻtildi.

– Oʻz navbatida, deputatlar ham oʻz saylov hududlariga borganida mahalliy hokimliklar tomonidan aholini kambagʻallikdan chiqarish va ish oʻrinlari yaratish boʻyicha qilinayotgan ishlar, bu boradagi qonunchilikning ijrosi va mavjud kamchiliklarni hal etish masalalariga alohida eʼtibor qaratishi lozim, – dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov.

Shundan soʻng “Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimchalar va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi qizgʻin muhokama qilindi.

Yigʻilishda amalda foydalanilgan transport vositalarini qimmat narxlarda sotish maqsadida odometr koʻrsatkichini

soxtalashtirish holatlari kuzatilayotgani, buning natijasida esa avtomobilning yangi egasi avtomobil holati haqida notoʻgʻri maʼlumotga ega boʻlayotgani aytiladi.

Fraksiya aʼzosi Sherzod Toʻxtashev ushbu qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksda buning uchun javobgarlik choralari belgilanayotganini qayd etdi. Bu boradagi xorijiy tajriba ham misol qilib keltirildi.

Deputat Kozim Tojiyev qonun loyihasini qoʻllab-quvvatlab, mashina

egasi hech qachon odometr koʻrsatkichini oʻzgartirmasligini, bu ish aynan oʻrtada turgan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishini taʼkidladi. Oʻrtadagi shaxs esa ertaga huquqiy jihatdan bu majburiyatni zimmasiga olmaydi. Shu maʼnoda, “Bu oʻzgarish qanchalik samara beradi?” deya qonun tashabbuskorlariga yuzlandi.

Deputat Farhod Zayniyev esa qonunchilikka

kiritilayotgan ushbu oʻzgarishni maʼqullab, ayrim normalar boʻyicha oʻz takliflarini berdi.

Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida Prezidentimiz raisligida kambagʻallikni qisqartirish hamda aholi bandligini taʼminlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida belgilangan vazifalar haqida soʻz yuritildi.

Fraksiya aʼzolari koʻtarilgan masalalar partiyaning bosh gʻoyasi ijtimoiy adolatni taʼminlash va aholi farovonligini oshirish maqsadlari bilan toʻliq hamohangligi, kelgusi yil uchun belgilab berilgan ustuvor yoʻnalishlar partiya dasturiy maqsadlariga uygʻun ekanini qayd etdi.

Shundan soʻng deputatlar “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasini muhokama qildi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni barpo etish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmogʻda.

Ushbu qonun loyihasi bilan Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qator qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilayapti.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan oʻz fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini

bildirib, undagi ayrim normalar boʻyicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Qonun loyihasiga masʼul deputat koʻtarilgan barcha savolga atroflicha tushuntirish berib oʻtdi.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasi fuqarolar huquqlarini himoya etishga xizmat qilishini eʼtiborga olib, uni qoʻllab-quvvatladi.

Yigʻilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab deputatlar Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oʻtkazilgan videoselektor majlisida belgilangan – kambagʻallikni qisqartirish, aholi bandligini taʼminlash va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar ijrosiga oid masalalar yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildirdi.

Fraksiya rahbari Ulugʻbek Inoyatov hozirgi kunda kambagʻallikni qisqartirish, bandlikni taʼminlash, ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilish boʻyicha muayyan natijalar qoʻlga kiritilgan boʻlsa-da, bu yoʻnalishda hal etilishi lozim boʻlgan dolzarb vazifalar hali yetarlicha ekanini taʼkidladi. Shu bois videoselektorda belgilangan 5 ta yoʻnalish boʻyicha aniq rejalarni belgilab olish, eng muhimi, har bir chora-tadbirning amaliy

kiritishni davrning oʻzi talab qilmoqda.

Qonun loyihasining ijtimoiy ahamiyatiga ham alohida eʼtibor qaratilgan holda loyiha qoʻllab-quvvatlandi.

“Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi maʼmuriy javobgarlikka oid qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan. Muhokama davomida foydalanilgan transport vositalarining odometr koʻrsatkichlarini sunʼiy tarzda oʻzgartirish holatlari uchrayotgani qayd etilib, bu isteʼmolchilar manfaatlariga zid ekanini maʼlum qilindi.

Qonun loyihasi bilan avtotransport vositasining bosib oʻtgan masofasini koʻrsatuvchi odometr uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilgani yoki odometr uskunasi almashtirilgani haqida avtotransport vositasini realizatsiya qilishdan oldin xaridorni xabardor etmagani uchun javobgarlik choralari belgilanmogʻda.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar



natija berishiga eʼtibor qaratish zarurligi aytiladi.

Yigʻilishda “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamalar markazida boʻldi.

Deputat Jamol Achilov fikricha, odometr koʻrsatkichini soxtalashtirish natijasida avtomobil holati haqida notoʻgʻri maʼlumot berilishi, shu sababli esa qoʻshimcha texnik xizmat koʻrsatish va ehtiyot qismlarni almashtirish muddatlarining kechikishi kabi oqibatlar kuzatilmogʻda. Bu holat nafaqat mulkdor, balki boshqa yoʻl harakati qatnashchilari uchun ham xavf tugʻdirishi mumkin. Shu sababli amaldagi qonun hujjatlariga tegishli oʻzgartirishlar

ishtirokidagi maʼmuriy huquqbuzarlik boʻyicha ishlarni koʻrishda pedagog yoki psixologning majburiy qatnashishi talabi nazarda tutilmogʻda.

Fraksiya aʼzolari taʼkidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi isteʼmolchilar huquqlariga doir amaldagi kafolatlarni yanada mustahkamlashga, voyaga yetmaganlarning huquqiy manfaatlarini himoyalash mexanizmlarini takomillashtirishga, sud jarayonlarida ularga psixologik va ruhiy koʻmak koʻrsatilishi boʻyicha qoʻshimcha kafolatlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Muhokamalardan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.

OʻZBEKISTONNING NOTARIAT TIZIMI

Yangi bosqichdagi rivojlanish tendensiyalari

Soha xodimlari uchun keng vakolatlar

➡ 2025-yil 9-sentabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori notariat xizmatlarida yangi davrni ochdi.

Ushbu hujjatga koʻra, 2026-yil 1-martdan boshlab notariuslar nizosiz fuqarolik huquqiy talablar boʻyicha ijro yozuvlarini mustaqil rasmiylashtirish huquqiga ega, BHMning 1000 barobarigacha boʻlgan miqdoriga teng summalar uchun qiz va toʻlovlarini sudsiz talab qilish mumkin boʻladi. Bu notarial tasdiqlangan bitimlarga asoslangan talablar, garovga qoʻyilgan harakatlanuvchi mulk boʻyicha qarzlarda (xatlar va bitim mavjud boʻlsa), ijara va kommunal toʻlovlar, koʻp qavatli uylar aholisi bilan bogʻliq toʻlovlar kabi talablarga tegishli. Bu orqali fuqarolar uzoq sud jarayonlaridan qochib, adolat tezroq tiklanishini taʼminlaydi. Shuningdek, notariuslar uchun xizmat muddati 65 yoshdan 70 yoshgacha uzaytirildi va xohlagan notarius malaka baholashdan soʻng 70 yoshgacha faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, Prezidentimiz qarori bilan 2025-yil 1-dekabrden boshlab nikoh shartnomalari va boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarning originallari talab qilinmaydi – nusxalari “Notarius” tizimiga yuklanadi. Audio va



videoyozuvlar avtomatik ravishda ish yuritishga birlashtiriladi. 2026-yil 1-yanvardan fuqarolar notarial idoraga pasport yoki ID-kartani olib kelishlari shart emas; shaxs biometriya va hujjat rekvizitlari orqali aniqlanadi. 2026-yil 1-apreldan koʻchmas mulk bitimi roʻyxatga olinganidan soʻng yangi egasi haqidagi maʼlumot kommunal xizmatlar tizimiga avtomatik uzatiladi. Bunday oʻzgarishlar fuqarolar hayotini yengillashtiradi va huquqlarini yuqori darajada himoya qiladi.

Qonunchilik, xalqaro tajriba va eʼtirof

Islohotlar ilgʻor xorijiy tizimlar tajribasiga tayangan holda amalga oshirilmogʻda. Masalan, er va xotin birgalikda vasiyatnoma tuzishlari mumkin, bu meros rejalashtirishni moslashtiruvchi qiladi. Endilikda notariuslar uchun ham intizomiy javobgarlik tizimi yangilandi: agar xatti-harakat moddiy zarar keltirmasa, litsenziya toʻxtatilmaydi, ogohlantirish yoki jarima yetarli boʻladi.

Shuningdek, notariuslikka

tanlov ildizlari yagona elek-tron tizim orqali amalga oshiriladi. Notarial hujjatlar uchun yagona gerbl blank va QR-kod joriy qilindi, bu hujjatlarining haqqoniyligi va sertifikatlarining ishonchli himoyasini taʼminlaydi. Strategik rejalashtirishga alohida eʼtibor qaratildi: zamonaviy Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan 2025 – 2027-yillarda notariatni rivojlantirish “Yoʻl xaritasi” tasdiqlandi.

Notarial palata tashkil etilgan paytdan boshlab xalqaro

va Xalqaro notarial hamkorlik boʻyicha komissiyasi aʼzosi hisoblanadi.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Notarial palatasi dunyodagi 70 dan ortiq notarial tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, 20 dan ziyod davlatlar bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolagan. Shuningdek, palata “Bir makon, bir yoʻl” tashabbusi doirasidagi hamkorlik va Turkiy tilli davlatlar notariuslari ittifoqi aʼzosi.

Palata 2025-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Oliy sud va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik memorandumlarini

“Bugungi kunda notarial harakatlarning katta qismi elektron shaklda amalga oshirilmoqda. “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi yagona elektron platformasining ishga tushirilishi bilan notarial harakatlarni onlayn tartibda amalga oshirish, elektron hujjat almashinuv tizimi, elektron navbat va onlayn bron xizmati, maʼlumotlarni yagona reestrda saqlash va tekshirish imkoniyati yaratildi. Bu, birinchidan, fuqarolar uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirsa, ikkinchidan, soxta hujjatlar va korruptsiya ehtimolini keskin qisqartirdi.”

hamkorlikni faol rivojlantirib, milliy notariat tizimini jahon professional hamjamiyatiga integratsiyalashtirishga harakat qilmoqda. Buning samarasi oʻlaroq, palata 2021-yilda Xalqaro notariat ittifoqining (UINL) toʻliq aʼzosi boʻldi.

Hozirda Oʻzbekiston notariati vakillari Xalqaro notariat ittifoqining Bosh maslahatchisi

imzoladi. Bu kelishuvlar kasbiy tajriba almashish, notariuslarning malakasini oshirish va notarial tartib-taomillarni xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan.

Palata 2025-yil sentabrda ISO 9001:2016 (sifat boshqaruvi) va ISO 37001:2016 (korruptsiyaga qarshi) sertifikatlarini oldi. Bu

uning yuqori darajadagi tashkilot boshqaruvi va faoliyatda halollik, xolislik va kasb etikasiga rioya qilishini tasdiqlaydi.

Notarial palata ijtimoiy loyihalarni tizimli amalga oshiradi. Oxirgi yillarda yuzdan ortiq aksiyalar oʻtkazilib, minglab fuqarolarga bepul yuridik maslahatlar berildi. Mobil chiqishlar orqali aholiga masofadan bepul notarial qabullar tashkil qilindi.

Palata keyingi yillarda “Eng namunaviy jamoat birlashmasi”, “Eng faol nodavlat notijorat tashkiloti” deya eʼtirof etildi, shuningdek, “Huquqni muhofaza qilish uchun mukofot”ga loyiq koʻrildi. Uning xodimlaridan ikki nafari “Huquqiy targʻibot ishlari aʼlochisi”, bir nafari “Adliya aʼlochisi” koʻkrak nishoni sohibi boʻldi. Bu eʼtirof va mukofotlar notariat tizimi faoliyatining qonuniyligi va unga nisbatan fuqarolarning ishonchi ortib borayotgani ifodasidir.

Oʻzbekiston notariat tizimidagi islohotlar mamlakatda olib borilayotgan umumiy modernizatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamlashtirish, xususiy notariatni joriy etish, shaffoflik va xavfsizlikni kuchaytirish kabi choralar sohani sifat jihatdan yangi darajaga koʻtarmoqda. Eng muhimi, bu oʻzgarishlar fuqarolar hayotini yengillashtirib, tadbirkorlik faoliyatiga qulaylik yaratyapti va huquqiy munosabatlarni yanada barqarorlashtirmogʻda.

Dilshod ASHUROV,
Oʻzbekiston Notarial palatasi raisi.

ILM VA INNOVATSIYAGA TAYANILGAN YONDASHUV

qishloq xo'jaligi sohasi taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda

Mana, ko'z ochib yumguncha yana qishloq xo'jaligida g'alvirl suvdan ko'tariladigan pallaga ham yetib keldik. Buni xalqimiz sarhisob deydi. Agar ortga nazar solib, bu yilgi dehqonchilik mavsumini sarhisob qiladigan bo'lsak, qo'lga kiritilgan natijalardan ko'ngil yorishadi. Negaki, agrar sohada ilmga, bilimga, innovatsiyaga tayanib ish ko'rilayotgani, dehqonchilik chuqur isloh qilinib, amaliyotda yangicha yondashuvlar qo'llanilayotgani o'z samarasini bermoqda. Zotan, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi modernizatsiya va diversifikatsiya qilinaypti.

Nuqtai nazar


Darhaqiqat, keyingi paytda ilm va innovatsiyaga asoslangan yangi intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berayotir. Bunday tizimli yangilanishlar paxtachilik tarmog'ida yaqqol bo'y ko'rsata boshladi. Bunday deiysh uchun asoslar yetarli, albatta. Chunki joriy mavsumda birgina hosildorlik ko'rsatkichini oladigan bo'lsak, o'zbek paxtachiligi tarixida kuzatilgan rekord natijalar qo'lga kiritildi. Yurtimizdagi ko'plab ilg'or fermer xo'jaliklarida birinchi marta gektardan 85 – 90 sentnerdan hosil olishga muvaffaq bo'ldi.

Aytaylik, Qamashi tumanida shu paytgacha paxtadan o'rtaacha 35 – 40 sentnerdan hosil olingan bo'lsa, ilmiy yondashuv, suv tejamkor texnologiyalar va tahlil asosidagi oziqlantirish tizimi joriy etilgach ushbu ko'rsatkich 65 – 70 sentnerga yetdi. Yoki bo'lmasa, Jondor tumanida paxta hosildorligi 70 – 80 sentnerni tashkil etdi. Bog'ot tumanidagi "Ahmadjon Ollayorov" fermer xo'jaligida 2024-yilda paxtadan gektariga 54 sentner hosil olingan bo'lsa, joriy yilda 70 sentnerdan oshirib, 49 gektar paxta maydonidan jami 295 tonna hosil yig'ib olindi. Ochig'i, bu ko'rsatkichlar ilgari orzu bo'lgan. "Nuroni" jamg'armasi Qashqadaryo viloyat bo'limi kengashi raisi Yanvar Inoyatovning aytishicha, bu yil paxtachilikda misli ko'rilgan darajada yuqori natijaga erishildi. Ilgari bunday hosil bo'lmagan. Sohadagi ushbu muvaffaqiyatlar zamirida, avvalo, yaxshi niyat bilan yuqori marra ko'zlanib, serhosil nav tanlangani, amaliyotda innovatsiyalar qo'llanilgani turibdi.

Yangi davr texnologiyalari

Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, bu yil mamlakatimizda qariyb 3,8 million tonna "oq oltin" yetishtirildi. Bu yuqori natijaga g'o'za maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki hosildorlikni ko'tarish hisobiga erishilgani, ayniqsa, quvonarli. Chunki keyingi yillarda paxta maydonlari qisqartirilib, 2025-yil hosili uchun 875,6 ming gektarda g'o'za parvarishlandi. Taqqoslash uchun keltiramiz, yaqin-yaqingacha bu raqam 1,1 million gektarga teng bo'lib, har doim ham kutilgan paxta olinmagana.

Savol tug'ilishi tabiiy: ekin maydoni salkam 225 ming gektarga kamaygani holda avvalgi



yillardagidan baland paxta xirmoni qanday yaratildi? Buni qisqacha "Yangi davrning yangi texnologiyalari sharo'fati", deya izohlash mumkin.

O'rganishlarga qaraganda, shu paytgacha paxta hosilining katta qismi boy berilishida mahalliy navlarning ko'sak qurtiga chidamsiz ekani asosiy sabablardan biri bo'lgani oydinlashdi. Shu bois tarmoqdagi o'zgarish, avvalo, g'o'za urug'chiligidan boshlandi.

Gap shundaki, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda g'o'za navlarini yangilash islohoti o'tkazilyapti. Natijada qurg'oqchilik va sho'r'larga, ko'sak qurti va gerbitsidga chidamli bo'lgan yuqori hosilli xorij navlari ekila boshlandi: joriy yilda qariyb 260 ming gektarda Xitoyning "Xin Lu Zhao-57", "Xin Lu Zhao-73", "Xin Lu Zhao-87" kabi navlari joylashtirildi. Samarasi esa aniq natijalarda namoyon bo'la boshladi. Ilgari 35 sentnerdan ko'p paxta olinmagan yerlardan ikki karra yuqori hosil ko'tarildi.

Shu o'rinda aytish joizki, ushbu xorij navlari shunchaki tanlangani yo'q, albatta. Ekstremal holatlar, ayniqsa, issiqlik, qurg'oqchilik va sho'r'lanishga chidamlilik alohida e'tibor qaratildi. Nega deganda, bu kabi tashqi omillar hosildorlik va tola sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Aksariyat klassik seleksiya usullari ushbu muammolarni to'liq hal eta olmayapti. Shu bois seleksioner olimlar kompleks xususiyatlarga ega tizmalar olish bilan birga, irsiy jihatdan boyitilgan, hozirgi vaqtda ishlab chiqarish talablariga to'liq javob beradigan yangi istiqbolli navlar yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Xitoy g'o'za navlari ana shunday izlanishlar mahsuli hisoblanadi.

Ayni paytda yurtimiz olimlari xorijdan keltirilayotgan shu va boshqa g'o'za navlari genlarini 22 ta mahalliy navga o'tkazish ustida ilmiy tadqiqotlar o'tkazmoqda. Demak, yaqin yillarda iqlim o'zgarishlari, ko'sak qurti va gerbitsidga chidamli o'zimizning yangi navlar yaratiladi, deb bemalol ayta olamiz.

O'zbek paxtachiligida sifat bosqichi

G'o'za navlari almashishi bilan o'zbek paxtachiligiga yangi dehqonchilik madaniyati ham kirib kelganini alohida ta'kidlash joiz. Bu yurtimizda 90 santimetrli yakkaqator chigit ekish sxemasidan to'liq voz kechilib, resurstejamkor yuqori samarali intensiv agrotexnologiyaga o'tilgani bilan izohlanadi. Endilikda xalqaro tajriba asosida chigit 70x10 sxemada qo'shqator qadalib, har gektar yer maydonida avvalgi 160 ming tup o'miga 240 ming tup ko'chat undirib olinmoqda.

Bu yerda gap nav samarasi haqida emas, balki yangi texnologiya haqida ketmoqda. U chigitni qo'shqator usulda plyonka ostiga ekib, tomchilab sug'orish usulida parvarishlashni nazarda tutadi. Bu "aqli" qishloq xo'jaligining yorqin ko'rinishi hisoblanib, qo'l mehnatini keskin kamaytiradi, moddiy va tabiiy resurslarni iqtisod qilish imkonini beradi. Chunki yangi usulda yaganalash tadbirlari o'tkazilmaydi, begona o'tlarga qarshi qo'l chopig'i 2-martaga, qator orasini yumshatish (kultivatsiya) 7-martaga qisqaradi, suv sarfi 50 foizgacha kamayadi, chilpish (chekanka) qilinmaydi.

“Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, bu yil mamlakatimizda qariyb 3,8 million tonna “oq oltin” yetishtirildi. Bu yuqori natijaga g'o'za maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki hosildorlikni ko'tarish hisobiga erishilgani, ayniqsa, quvonarli. Chunki keyingi yillarda paxta maydonlari qisqartirilib, 2025-yil hosili uchun 875,6 ming gektarda g'o'za parvarishlandi. Taqqoslash uchun keltiramiz, yaqin-yaqingacha bu raqam 1,1 million gektarga teng bo'lib, har doim ham kutilgan paxta olinmagana.”

Buning hisobiga ekin parvarishlash xarajati har gektarida kamida 4,5 million so'mgacha kamayishi hisob-kitob qilingan.

Davlatimiz rahbari tomonidan soha mutasaddilari oldiga qo'yilayotgan yangi talab va vazifalarni chuqur anglagan akademik Ibrohim Abdurahmonovning chuqur ilmiy yondashuvi, innovatsion qarashi va boy tajribasi paxtachilikda sifat bosqichini boshlab berdi. Tahillarga qaraganda, muvaffaqiyatning asosiy omili paxtaning pishib yetilish davri tezlashib, hosildorlik oshishida ko'zga tashlanmoqda. Masalan, hosildorligini 70 sentnerga yetkazgan fermerda gektardan 18 – 20 million so'mgacha qo'shimcha daromad olish imkoniyati paydo bo'ladi. Axir hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida natijalar faqat hosildorlik ko'rsatkichlari bilan emas, ko'riladigan daromad miqdori bilan ham o'chanadi. Masalaga ana shu jihatdan yondashilsa, xalq orasida "Shinjon" agrotexnologiyasi deb nom olgan yangi innovatsion usul sharo'fati tufayli paxtakorlarning daromadi oshayapti.

Chindan ham, paxtakor fermerlarimiz ilgga tayanilgan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish orqali daromadni ikki baravar oshmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, ilk bor har gektar yerdan o'rtaacha 50 – 60 million so'm daromad yoki 30 – 40 million so'mdan so'f foyda olinishi

kutilmoqda.

Yana bir jihat, intensiv va innovatsion agrotexnologiyalar samarasi o'laroq, paxta hosilining pishib yetilish davri tezlashib, xomashyo yog'in-sochinli kunlarga qolmasdan to'liq yig'ishtirib olishga sharoit beratlayotir. Misol uchun, joriy yilda paxta hosili oktabr oyida to'liq saranjomlab olindiki, bu o'zbek paxtachiligida butunlay yangi davr boshlanganini anglatadi, albatta.

Bozor tamoyillari asosida

Keyingi sakkiz yilda qishloq xo'jaligini iqtisodiyotning haqiqiy drayveriga aylantirish uchun tub islohotlar amalga oshirilyapti. Chunki chorak asrdan ziyod vaqt oralig'ida mazkur sohaga deyarli "teginilmagan" edi. Oqibatda qishloq xo'jaligida boshqa davlatlar bilan raqobatga dosh berolmay qolganimiz achchiq haqiqat edi. Shunday paytda Prezidentimizning qat'iy irodasi bilan, uzoq istiqbolni ko'zlab qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari chinakamiga joriy etila boshlandi. Buni bevosita g'allaba bozorini erkinlashtirish yo'lidagi islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

ularning moddiy manfaatdorligini oshirish yo'lidagi tashlangan muhim qadam bo'ldi.

2020-yildan e'tiboran davlat buyurtmasi asosida boshqoqli don yetishtirish amaliyoti bekor qilindi. Fermer xo'jaliklariga g'allaba uchun ajratilgan imtiyozli kredit mablag'laridan erkin foydalanish hamda xizmat ko'rsatuvchi va resurs yetkazib beruvchilarni ixtiyoriy tanlash huquqi berilishi, shuningdek, don xarid qilish hamda sotishda birja mexanizmining joriy etilishi yuqori manfaatdorlikni ta'minlamoqda. Natijada fermerlar davlat resursi va birja savdolarida sotish uchun g'allaba topshirish ko'proq manfaat keltirayotganini amalda his etmoqda. Prezidentimiz tomonidan g'allakorlarning fidokorona mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida 2025-yil hosilidan boshlab mahsulot yetishtirish xarajatlarni moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar amaldagi 12 foizdan 10 foizgacha tushirilgani holda to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklariga ajratish tartibi joriy qilinganini alohida e'tirof etish lozim. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash uchun subsidiya ajratilishi natijasida yomg'irlatib sug'orish tizimlari o'rnatilgan g'allaba maydonlari kengaytirildi.

G'amxo'rlikning yorqin ifodasi

Qishloq xo'jaligi subyektlari va fermerlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining doimiy e'tibori markazidagi masalaga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Birgina 2025-yilning o'tgan davrida Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan tegishli Farmon va qarorlar orqali qishloq mulkdorlariga qator imtiyoz va vakolatlari berildi.

Bu haqda gap ketganda, avvalo, soliq yuki yengillashtirilganini alohida ta'kidlash joiz. Ya'ni davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 19-martda imzolangan Farmonga muvofiq, fermer xo'jaliklarining soliq qarzdorligi bo'yicha hisoblangan penyalari hisobdan chiqarildi, ijro ishlari to'xtatildi.

Qolaversa, Prezidentimizning 2025-yil 28-martdagi qaroriga ko'ra, paxtachilikda gektardan 50 sentner, g'allachilikda esa 80 sentnerdan yuqori hosil olgan fermerlarga qo'shimcha imtiyozlar joriy etildi. Ya'ni ijaraga olingan yerlarning 25 foiz qismiga almashlab ekish huquqi (chorva ozuqasi, savzatov, moyli ekinlar) berildi, yer solig'ida bazaviy stavkaga nisbatan mutanosib ravishda 3 karragacha kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash tatbiq qilindi.

“AR-RIYOD – 2025”: O‘ZBEKISTON DELEGATSIYASI IKKINCHI O‘RINDA

Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahri mezbonlik qilgan VI Islom birdamligi o'yinlari rasman yakuniga yetdi. Unda muzaffar sportchilarimiz 29 ta oltin, 35 ta kumush va 32 ta bronza, jami 96 ta medal bilan 57 mamlakat orasida umumjamoa hisobida Turkiyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi.

Bakriddin ZARIPOV, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, Jahon fiziologlar jamiyati (Stokgolm) akademigi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").



“PREZIDENT OLIMPIADASI” BELLASHUVLARIGA START BERILDI

Kecha "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqalarining final bosqichi – "Prezident Olimpiyasi"ga start berildi. Musobaqaning ilk kunida badiiy gimnastika, og'ir atletika, boks va erkin kurash bahslari o'tkazildi. Shuningdek, suv sporti turlari bo'yicha ko'rgazmali dastur bellashuvlari ham tashkil etiladi.



Chirchik Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi mezbonlik qilayotgan og'ir atletika bahslarining dastlabki g'oliblari ma'lum bo'ldi. Dasturga ko'ra, yengil vazn toifasidagi qizlar o'rtaasida g'olib va sovrindorlar aniqlab olindi.

Xususan, -40 kg. vazn toifasi bo'yicha Gulchehra Doniyorova (Navoiy) oltin, Zebo Inomova (Namangan) kumush va Muslima Nurilayeva (Qashqadaryo) bronza medallarini qo'lga kiritgan bo'lsa, -45 kg. vazn doirasidagi bellashuvlarda Feruza Qadamboyeva (Xorazm) oltin, Malika Hojiyeva (Navoiy) kumush hamda Farangiz Abdullailova (Namangan) bronza medallariga ega chiqdi.

Badiiy gimnastika bo'yicha esa xalqaro maydonda katta tajribaga ega bo'lgan Natalya Usova oltin medalni qo'lga kiritdi.

YOSH GANDBOLCHILARIMIZ JAHON CHEMAIONATIDA QATNASHADI

Tailandda gandbol bo'yicha "Ihf trophy" kubogining Osiyo mintaqasidagi bahslari yakunlandi. Quvonarlisi, mazkur musobaqada ishtirok etgan O'zbekiston "U17" qizlar jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Final bahsida sportchi qizlarimiz hindistonlik tengqurlarini 48:47 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Aytish joizki, ushbu g'alaba jamoamizga kelasi yil uyushtiriladigan jahon chempionati yo'llanmasini ham taqdim etdi.



“AR-RIYOD – 2025”: O‘ZBEKISTON DELEGATSIYASI IKKINCHI O‘RINDA


Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahri mezbonlik qilgan VI Islom birdamligi o'yinlari rasman yakuniga yetdi. Unda muzaffar sportchilarimiz 29 ta oltin, 35 ta kumush va 32 ta bronza, jami 96 ta medal bilan 57 mamlakat orasida umumjamoa hisobida Turkiyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi.



Atletlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan ushbu muvaffaqiyat mamlakatimizning Islom birdamligi sport assotsiatsiyasiga a'zo davlatlar orasida yirik sport "saltanat"laridan biri ekanini yana bir karra ko'rsatdi.

Eslatib o'tamiz, yopilish marosimida Islom birdamligi sport assotsiatsiyasi bayrog'i navbatdagi o'yinlarni o'tkazadigan Malayziyaga tantanali ravishda topshirildi.

"Xalq so'zi".



Omikorlik

Uchko'prik tumanidagi Tepa'qo'rg'on mahallasida aholi tasarrufida 70 gektarga yaqin tomorqa bor. Bu ekin maydonlarida yilning to'rt faslida ham talab katta bo'ladi, tarkibida inson salomatligi uchun ko'plab tabiiy va foydali darmondorlarni jamlagan ismaloq yetishtiriladi.

TO'RT FASLDA HAM ISMALOQ YETISHTIRILADI

Hisob-kitobga ko'ra, har gektaridan o'rtaacha 20 – 25 tonna hosil olinadi.

– Ayni paytda mahallamizda qariyb 5,5 ming nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi "Tepa'qo'rg'on" MFY raisi Ne'matjon Sultonov. – "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida ismaloq yetishtirish orqali oilalar farovonligi ta'minlanmoqda. Mahallaning asosiy drayveriga aylangan ismaloqning 20 darajagacha sovuqqa chidamliliigi uning savdosini qishning chillasida ham davom

ettirish imkonini beradi. Tomorqachilarimiz bu imkoniyatdan unumli foydalanayotgani tufayli qishin-yozin mo'may daromadga ega bo'lmoqda.

Darvoqe, tajribali mirishkorlarning mahsulotiga Toshkent shahri, Farg'ona vodiysining turli hududlaridan ulgurji xaridorlarning ko'pligi ham ayni muddao.

– Shu sababli tomorqamizda parvarishlangan hosilni sotish uchun bozorma-bozor yurishga hojat yo'q, – deydi tomorqachilardan biri Hayotbek

Hasanov. – Kuni kecha 2 tonna ismaloqni paykalning boshida andijonlik xaridorlarga bir kilogrammi 7 ming so'mdan sotdim.

E'tiborlisi, joriy yilda yangilik sifatida ismaloqning mahalliy navlari qatorida Xitoydan keltirilgan urug'idan ham mo'l hosil olindi. Yangi nav sermahsul hamda sifatli ekanini aniqlandi. Shu bois xaridori ko'p, narxi ham shunga yarasha bo'ldi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6